**Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi**

*E’lon qilish sanasi: 28.07.2026 y.*

**PRESS-RELIZ**
*Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari*

# Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*2026-yil yanvar-iyun oylari uchun*


***I.*** Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot
***II.*** Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
***III.*** Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
***IV.*** Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
***V.*** Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
***VI.*** Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar


## I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21 230 tani tashkil etdi.

### Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi[1]




[1] *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma’lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik*

## Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

| | 2025- yil 1- iyul holatiga, birlik | 2026-yil 1- iyul holatiga, birlik |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog'iston Respublikasi** | **18 915** | **21 230** |
| Amudaryo | 1 544 | 1 692 |
| Beruniy | 1 720 | 1 944 |
| Bo'zatov | 296 | 329 |
| Qorao'zak | 425 | 466 |
| Kegeyli | 596 | 653 |
| Qo'ng'irot | 1 091 | 1 176 |
| Qonliko'l | 510 | 600 |
| Mo'ynoq | 498 | 622 |
| Nukus | 740 | 864 |
| Taxiatosh | 584 | 604 |
| Taxtako'pir | 253 | 277 |
| To'rtko'l | 2 082 | 2 175 |
| Xo'jayli | 959 | 1 039 |
| Chimboy | 798 | 881 |
| Shumanay | 445 | 536 |
| Ellikqal'a | 1 268 | 1 452 |
| Nukus sh. | 5 106 | 5 920 |

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

---

*shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirilgan ma'lumotlar.*

2026- yilning yanvar-iyun oyida 1 954 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 668 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 253 ta, sanoatda 264 ta hamda boshqa xizmatlarda 276 ta tashkil etilgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**




**Shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**

| | 2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik | 2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **1 744** | **1 954** |
| Amudaryo | 92 | 136 |
| Beruniy | 154 | 168 |
| Bo‘zatov | 30 | 19 |
| Qorao‘zak | 40 | 37 |
| Kegeyli | 62 | 55 |
| Qo‘ng‘irot | 99 | 116 |
| Qonliko‘l | 54 | 57 |
| Mo‘ynoq | 59 | 63 |
| Nukus | 50 | 79 |
| Taxiatosh | 60 | 48 |
| Taxtako‘pir | 14 | 23 |
| To‘rtko‘l | 124 | 158 |
| Xo‘jayli | 94 | 101 |
| Chimboy | 62 | 72 |
| Shumanay | 76 | 74 |
| Ellikqal’a | 141 | 119 |
| Nukus sh. | 533 | 629 |

## III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyun oyida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 66,3 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 64,9 % ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 079,4 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya’ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 40,7 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Amudaryo, Bozatov,Shomanay tumanlari (100,0 %)  Ellikqal’a tumani (99,8 %), Xo‘jayli tumani (97,6 %) va To’rtko’l tumani (74,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi..

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 415,6 mlrd so‘mni, ya’ni qurilish ishlari umumiy hajmining 66,6 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025 - yilning ushbu davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatosh tumani (162,0 %), Chimboy tumani (120,7%) va Taxtako‘pir tumani (114,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi




2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 994,8 mlrd so‘mni, ya’ni umumiy hajmidagi ulushi 67,4 % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025 - yilning ushbu davriga nisbatan 129,7 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatosh tumani (1750,0 %), Xojayli tumani (443,8 %), Beruniy tumani (264,8 %), Shumanay tumani (202,6 %),  va Amudaryo (183,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi hajmi 15 131,0 mlrd so‘mni, ya’ni umumiy hajmidagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025 - yilning ushbu davriga nisbatan 116,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Qorao’zak, Chimboy, Shumanay tumanlarda (99,9 %), Qong’irot, Bozatov tumanlarda (99,8 %), Ellikqal’a Kegeyli tumanlarida (99,6 %) va Beruniy tumani (99,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 8 145,9 mlrd so‘mni, ya’ni umumiy hajmining 81,8 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025 - yilning ushbu davriga nisbatan 123,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko‘p ulushi Taxiatosh tumani (135,1 %), Nukus va Taxtako‘pir tumanlari (127,0 %), Amudaryo tumani (125,7 %), Ellikqal’a tumani (125,5 %) va Qo’ng’irot tumanida (123,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 13 799,0 milliard so‘mni, ya’ni umumiy hajmining 69,9 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025 - yil yilning ushbu davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko‘p ulushi Nukus shahri (126,9 %), Qanlik‘ol tumani (119,7 %), Qarao‘zak tumani (119,2 %), Nukus tumani (119,4 %) va To’rtko’l (119,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 94 655,9 ming AQSH dollarini, ya’ni umumiy eksport hajmining 44,4 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Amudaryo, Beruniy, Bozatov, Qorao’zak, Nukus, Taxtako’pir, To’rtko’l, Xojayli, Chimboy, Shumanay va Ellikqal’a tumanlarida – 100,0 %, ni tashkil qildi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyun oyida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 160 131,2 ming AQSH dollarini, ya’ni jami importning 70,5 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qo’rao’zak, Shumanay tumanlari 100,0 %, Qong’irot 99,5 %, va Taxtako’pir tumani 99,3 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




## IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2026- yilning yanvar-iyun oyida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,2 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar- iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2025- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,3 % ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




## V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

### Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, 2026- yilning yanvar-iyun oyida korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a’lo deb baholagan korxonalar 15,2 % ni, yaxshi deb baholaganlar 48,8 %, o‘rtacha deb baholaganlar 27,8 % ni tashkil etgani holda 8,2 %i yomon deb baholadi tashkil qildi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar

2026- yilning yanvar-iyunida o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yaxshilangan deb baholaganlar 31,8 % ni tashkil etgan, vaziyat o‘zgarmagan deb hisoblovchilar 60,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa yomonlashgan deb baholaganlar 7,3 % dan iborat bo‘ldi.

Keyingi chorak uchun o‘zgarishlar istiqboli

2026- yilning yanvar-iyunida o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaxshilangan deb baholaganlar 39,1 % ni tashkil etgan, vaziyat o‘zgarmagan deb hisoblovchilar 56,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa yomonlashgan deb baholaganlar 4,5 % dan iborat bo‘ldi.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar- iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi




## Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a’lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi Xizmatlar soxasida 20,0% ni, Sanoatda – 16,5% ni, Qurilishda– 11,1 % ni, Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 15,1%ni va Savdoda - 16,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda – 51,3 % ni, xizmatlar sohasida – 45,0 % ni, sanoatda – 48,7 % ni, Qurilishda 51,1 %ni va Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 39,4 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o‘rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 36,4 %ni Qurilishda – 24,5 % ni, Savdoda – 27,3 % ni, Sanoatda – 26,1 % ni va Xizmatlar sohasida – 27,5 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Qurilishda - 13,3 %ni, Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida - 9,1 % ni, Sanoatda - 8,7 %ni, Savdoda - 4,5 %ni tashkil qildi, Xizmatlar sohasida – 7,5 % ni tashkil etdi.

**Biznesga ishonch muhitini baholash**
**(o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar)**




## VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



**Tayyorlash uchun mas’ul:** Tadbirkorlik subyektlari kuzatuvi bo‘limi

**Ijrochi:** A. Kamalov 61 222-78-21 (9530)

**Manzil:** Nukus sh., A.Dosnazarov ko‘chasi, 97a.